



UDK: 633.854.78;631.816.1

KUNGABOQAR URUG'LARINING LABORATORIYA SHAROITIDA UNUVCHANLIGI

Ro'zmanov Abdullo Norboy o'g'li,
tayanch doktoranti

Baxramova Nilufar Nazarovna,
q.x.f. f.d., k.i.t

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada takroriy ekin sifatida ekishga mo'ljallangan kungaboqar urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi aniqlangan. Olingan natijalarga ko'ra kungaboqarning **“Diyor”** va **“Jahongir”** navlari o'rta hisobda 48 va 47,7 dona urug'lar unib, unuvchanligi 96% va 95,3% ni, 1000 dona urug' vazni o'rta hisobda 99,9040 va 99,5890 grammni tashkil etishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: takroriy ekin kungaboqar, iqlim, tuproq, urug', 1000 dona urug' vazni, harorat, o'suv davri, to'liq pishish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны лабораторные исследования по определению всхожести семян подсолнечника, предназначенных для повторного посева. По результатам исследований установлено, что у сортов подсолнечника «Диёр» и «Жахонгир» всхожесть составляет в среднем 48 и 47,7 семян соответственно, при всхожести 96% и 95,3%, а средняя масса 1000 семян составляет 99,9040 и 99,5890 грамма.

Ключевые слова: Повторные посевы подсолнечника, климат, почва, семена, масса 1000 семян, температура, вегетационный период, полная спелость.

ANNOTATION

This article describes laboratory studies to determine the germination of sunflower seeds intended for re-sowing. According to the results of the studies, it



was found that the sunflower varieties "Diyor" and "Jahongir" have an average germination of 48 and 47.7 seeds, respectively, with a germination of 96% and 95.3%, and the average weight of 1000 seeds is 99.9040 and 99.5890 grams.

Key words: Sunflower replanting, climate, soil, seeds, thousand-seed weight, temperature, vegetation period, full maturity.

Mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda «dunyoda sug'oriladigan maydonlar 1,6 mlrd gektarni tashkil qiladi. Shundan, 7,4 mlrd aholini o'simlik moyiga bo'lgan talabini qondirish maqsadida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 23 mln gektarga yaqin yer maydonida kungaboqar o'simligini yetishtirilmoqda»¹. Keyingi yillarda aholi sonini ortib borishi natijasida, o'simlik moyiga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Shu sababli moy uchun kungaboqar o'simligini takroriy ekin sifatida yetishtirishda ekish muddatlari, o'g'it me'yorlarni qo'llash orqali uning hosildorligiga va moydorligiga ta'sirini aniqlashning iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda o'simlik moyini ishlab chiqarish uchun kungaboqar yetishtirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu borada, har bir mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, kungaboqar yetishtirishda maqbul ekish muddatlari, oziqlantirish me'yorlarini belgilash orqali iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan kungaboqar yetishtirish agrotadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda turli tuproq-iqlim sharoitlarida moyli ekinlarni yetishtirishda uning hosildorligi va moydorligiga ekish muddatlari hamda o'g'it qo'llash me'yorlarining ta'siri bo'yicha agrotadbirlari olib borilib muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida «tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib moyli,

¹ <https://www.fao.org.2019>



dukkakli va ozuqa ekinlarining turlari hamda navlari bo'yicha joylashtirish»² bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan maydonlarda takroriy ekin sifatida kungaboqar yetishtirishda uning hosildorligi va moydorligini oshiradigan iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish respublikamiz uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi №4118-sonli «Yog'-moy tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to'g'risida»gi va 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 sonli «Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Ammo Respublikamizning barcha tuproq-iqlim sharoitlarida kungaboqar yetishtirish bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan agrotadbirlar ishlab chiqilmagan bo'lib, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida tarqalgan sug'oriladigan tuproq-iqlim sharoitida takroriy ekin sifatida kungaboqar yetishtirishda maqbul ekish muddatlari va ma'dan o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlari bo'yicha agrotadbirlar ishlab chiqilmagan.

Shu bois, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kungaboqar ekinini takroriy ekin sifatida yetishtirish bo'yicha 3 ta muddatda, 5 ta oziqlantirish usulida (ma'dan o'g'itlar me'yorlari) ekib o'rganishni maqsad qildik.

Tadqiqot maqsadi Takroriy ekin sifatida ekishga mo'ljallangan kungaboqarning "Diyor" va "Jahongir" navlarining laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti markaziy tajriba uchastkasida olib borildi. Tadqiqotlarda Takroriy ekin

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 son «Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori



sifatida ekilgan kungaboqarning “Diyor” va “Jahongir” navlari 20 iyun , 30 iyun va 10 iyul sanalarida unuvchan urug‘ hisobida ekildi.

Olingan natijalarga ko‘ra, kungaboqarning 50 dona urug‘lari termostatga unuvchanligi qo‘yilgan bo‘lib, shundan «**Diyor**» va «**Jahongir**» navlari o‘rta hisobda 48 va 47,7 dona urug‘lar unib, unuvchanligi 96% va 95,3% ni tashkil etishi aniqlandi. Kungaboqar navlarining 1000 dona urug‘ vazni o‘rta hisobda 99,9040 va 99,5890 grammni tashkil etishi aniqlandi.

1-jadval

**Kungaboqar urug‘larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi (2022-2024
y.y)**

№	1000 dona don vazni, g	Laboratoriyada urugʻlarning unuvchanligi			
		Urugʻlarning soni, dona	Ungan urugʻlar soni, dona	Unmagan urugʻlar, soni, dona	Unuvchan- ligi, %
“Diyor” navi					
1	100,1875	50	49	1	98,0
2	99,8659	50	46	4	92,0
3	99,6586	50	49	1	98,0
Oʻrtacha	99,9040	50,0	48,0	2,0	96,0
“Jahongir” navi					
1	97,2736	50	47	3	94,0
2	101,1264	50	48	2	96,0
3	100,3671	50	48	2	96,0
Oʻrtacha	99,5890	50,0	47,7	2,3	95,3

Demak, kungaboqarning “Diyor” va “Jahongir” navlarini urug‘lari laboratoriya unuvchanligi mos ravishda 96; 95,3 foizni tashkil etishi ularni dalada ekish uchun unuvchan urug‘ hisobida ekish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kungaboqarning “Jahongir” navi



“Diyor” naviga nisbatan unuvchanligi 0,7% kam ko'rsatkichga ega ekanligi tajribalarda o'z isbotini topdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 son «Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori
2. Azizov T., Anorboyev I., To'xtayeva S. Takroriy kungaboqar yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. <https://agro.uz/uzsrvice/recomendations/4613>
3. Dala tajribalarni olib borish uslublari. (2007). O'zPITI.
4. Доспехов Б.А. (1985). Методы полевого опыта. Агропромиздат.
5. Tursunov L.T., Bobonorov R., Vakilov A., Yusupov S. Qashqadaryo havzasi hududi tuproqlari. –Toshkent, Turon – iqbol. 2008. – 248 b.
6. <https://www.fao.org.2019>.